

Date: 17th May-2025

“INKLYUZIV DARSLARDA ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNI BAHOLASHNING MUQOBIL SHAKLLARI”

Jalilova Salomat Shokir qizi
Buxoro innovatsiyalar universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar bilimini baholashning an’anaviy va muqobil shakllari tahlil qilinadi. Muallif mavjud baholash tizimlarining imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlab, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun individual yondashuv, multimodal taqdimotlar, formativ baholash, vizual va interfaol metodikalar asosidagi baholash tizimlarini taklif qiladi. Ilmiy tahlillar, tajriba natijalari hamda xalqaro tajriba asosida inkluziv baholash tamoyillari asoslab berilgan. Mazkur maqola o‘qituvchilar, logopedlar, defektologlar va maxsus ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, eshitishida nuqson, baholash shakllari, formativ baholash, muqobil metodika, moslashtirilgan topshiriq, multimodal taqdimot, vizual baholash, adaptatsiya, diagnostik tahlil.

Inklyuziv ta’lim bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy adolat va inson huquqlari nuqtai nazaridan ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar inklyuziv ta’lim muhitida ta’lim olish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat ularning bilimini adolatli va to‘g‘ri baholash, qobiliyatlarini aniqlash, ilgari surish va kerakli yordam ko‘rsatishda dolzarb muammolarni yuzaga keltiradi. An’anaviy baholash uslublari ko‘pincha bu toifadagi o‘quvchilarning imkoniyatlarini to‘liq hisobga olmaydi, natijada ular baholash tizimidan tashqarida qoladi yoki noto‘g‘ri baholanadi.

Muqobil baholash shakllari, ayniqsa formativ va diagnostik baholash, eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ta’limiy imkoniyatlarini real baholashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Formativ baholashda asosiy e’tibor natijaga emas, balki o‘quvchining rivojlanish jarayoniga qaratiladi. Bu esa eshitishda cheklovga ega o‘quvchilar uchun doimiy kuzatuv, individual yondashuv va ko‘rsatmalar orqali rag‘batlantirish imkonini beradi.

Muqobil baholashda multimodal (ko‘p hissiy) yondashuv alohida o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuvda o‘quv materiallari nafaqat eshituvga, balki ko‘rish, harakat, sensor va vizual idrok vositalariga tayangan holda taqdim etiladi. Masalan, topshiriqlarni rasm, piktogramma, sxema, infografika orqali berish; javoblarni yozma, rasmi yoki harakatli tarzda ifoda etish mumkin. Bu metodlar eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun o‘zlarini erkin ifodalashga imkon yaratadi va baholashda adolatli yondashuvni ta’minlaydi.

Shuningdek, o‘quvchining o‘z o‘zini baholash (self-assessment) va o‘zaro baholash (peer-assessment) usullaridan foydalanish ham samaralidir. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan



Date: 17th May-2025

o'quvchi uchun o'z yutug'ini anglash, muvaffaqiyatini sezish, o'zini tengdoshlar bilan solishtirish imkoniyatini yaratish ularning o'qishga nisbatan munosabatini yaxshilaydi. Shuningdek, bu usul orqali bolalar nutqiy va ijtimoiy moslashuvda ijobiy yutuqlarga erishadilar.

Baholashning muqobil shakllarini amaliyotga joriy qilishda o'qituvchilar quyidagi mezonlarga e'tibor qaratishlari lozim:

1. Baholash topshiriqlari eshitish imkoniyatini talab qilmasligi kerak;
2. Har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak;
3. Ko'p formatli taqdimot (rasm, video, grafik, jismoniy harakat) bo'lishi zarur;
4. O'qituvchining muntazam kuzatuv va oraliq fikrlari asosida shakllanadigan baholash tizimi bo'lishi shart.

Masalan, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchiga og'zaki savollar o'rniga, rasmlar, so'rovnomalar, xotira kartochkasi, tasvirli testlar orqali baholash tashkil etilishi mumkin. Dars davomida QR-kodli vizual vazifalar, jismoniy harakatlarga asoslangan topshiriqlar (masalan, "do'stini top", "belgini aniqlab ko'rsat") katta samara beradi.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, baholashning bu shakllari o'quvchilarning faolligini oshiradi, dars jarayonida ularni faol ishtirokchi sifatida namoyon qiladi, ularning bilimlarini har tomonlama ochib berish imkonini beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun baholash faqat nazorat mexanizmi emas, balki rivojlantiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi, motivatsiyalovchi vosita bo'lishi zarur.

Xalqaro tajriba ham bu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, Finlyandiya, Shvetsariya, Kanada kabi mamlakatlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun tayyorlangan "adaptiv baholash dasturlari" mavjud bo'lib, ular har bir bolaning rivojlanish darajasiga mos holatda tuziladi. Unda harakat, video, grafik va emotsional-reaktiv baholash komponentlari mavjud bo'lib, bu yondashuv bolani nazorat qilish emas, balki unga o'z yutuqlarini anglatish uchun xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat – ota-onalar baholash jarayoniga jalb qilinishi zarurligidir. Bu orqali baholash ikki tomonlama samaradorlikka ega bo'ladi: pedagog o'quvchi rivojini dars davomida tahlil qilsa, ota-ona uy sharoitidagi yutuq va muammolarni bildiradi. Bu sinergiya bola uchun eng maqbul o'sish yo'nalishini belgilashda yordam beradi.

Shuni unutmaslik kerakki, baholash nafaqat o'quvchi faoliyatini aniqlash, balki ta'lim sifatini nazorat qilish, o'quv jarayonini rejalashtirish, metodikani yangilash uchun asosiy vositadir. Shu bois eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning o'ziga xosliklarini e'tiborga olgan holda baholash tizimining har tomonlama, moslashuvchan va inklyuziv shakllarini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun muqobil baholash shakllarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ularning ta'limga jalb etilganlik darajasini oshiradi, o'z bilimlarini namoyish etish imkonini yaratadi, shaxs sifatida qadrlanish hissini shakllantiradi. Bu esa nafaqat ta'lim natijalarining yaxshilanishiga, balki jamiyatda ularning to'laqonli ishtirokiga olib keladi.



Date: 17th May-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodmonova S.R. “Maxsus pedagogikaning nazariy asoslari”. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Petrova V.G. “Инклюзивная педагогика: теория и практика”. – Moskva: Logos, 2018.
3. Qodirova D. “Inklyuziv ta’limda baholash usullari”. – Andijon, 2022.
4. WHO. “Deafness and hearing loss – report”. – Geneva, 2023.
5. Marschark M., Spencer P.E. “Evidence-Based Assessment for Deaf Students”. – Oxford University Press, 2010.
6. UNESCO. “Inclusive Education: Guidelines for Assessment in Diverse Classrooms”. – Paris, 2021.
7. Iskandarova N. “Moslashtirilgan darslar va baholash texnologiyalari”. – Farg‘ona, 2022.
8. Sokolova E. “Коррекционная педагогика: современные подходы”. – Moskva, 2020.

